

KITOBLAR QANDAY O‘QILADI?

Kelsinova Gulnoza

O‘zDJTU talabasi

Ilmiy rahbar : Yuldasheva F.F

O‘zDJTU katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kitoblarni qanday qilib tez va samarali usulda o‘qish, hamda qanday qilib ulardan maksimal darajada foyda olish, kitob o‘qish davomida duch kelinadigan qiyinchiliklar va ularni samarali bartaraf etish usullari yoritilgan.

Abstract: This article describes how to read books fast and with useful ways, and how to profit from them in a maximum extent, the difficulties encountered during reading the book and the methods of their effective elimination.

Аннотация: В этой статье рассказывается о том, как читать книги быстро и эффективно, как извлечь из них максимальную пользу, о трудностях, возникающих при чтении книг, и о том, как их эффективно преодолевать.

Kalit so‘zlar: kitoblar, o‘qish, metodlar, kitobxon, badiiy adabiyotlar, sharh, tavsif, muallif, satr, sarlavha.

Key words: books, reading, methods, reader, fiction, comment, description, author, line, title

Ключевые слова: книги, чтение, методы, читатель, художественная литература, рецензия, описание, автор, строка, название.

Bir paytlar Frensis Bekon “Ba’zi kitoblarni tatib ko‘rish kerak, boshqalarini yutib yuborish kerak, ba’zilarini chaynash va hazm qilish kerak” deb ta’kidlagandi.[1] Darhaqiqat umrimiz davomida biz o‘qiydigan ba’zi kitoblar shunchaki bir marotaba o‘qishga arziydi, ba’zilari esa qayta qayta o‘qish kerak, yana ba’zilarini “suv qilib ichib yuborish” kerak. Hozirgi kunda judayam ko‘plab yoshlar kitob o‘qishga qiziqishadi, xoh badiiy adabiyot bo‘lsin, xoh o‘zlarining tanlagan sohalaridaga adabiyotlar. Kitob o‘qish, umuman olganda, inson uchun har tomonlama foydali bo‘lgani holda, kishining dunyoqarashi, saviyasi, va madaniyatini isloh qiladi. Muntazam kitob o‘qiydigan insonlar uchun kitob hayotining ajralmas bir qismiga aylanib ulgurgan. Mana shu kitoblarni o‘qishdan olinadigan foydani maksimal darajaga chiqarish uchun quyida kitoblarni qanday o‘qish va tahlil qilishda kerakli qoidalar keltirib o‘tiladi.

1)Kitob tuzilishini tahlil qilish:

1. Kitob mavzusi va turini aniqlash.
2. Kitobda yozilganlarni iloji boricha qisqa va lo‘nda ifodalash.

3. Kitobning barcha asosiy bo‘limlarini aniqlab, huddi butun kitobni tahlil qilgandek ko‘rib chiqish.

4. Muallif qanday muammolarni yechishga urinayotganini aniqlash.

2) Kitoblarni bilim yetkazuvchi manba sifatida tanqid qilish:

1. Kitobni tahlil qilmay turib tanqidni boshlamaslik zarur.

2. Bilim va fikr o‘rtasidagi farqni hisobga olib, barcha fikrlarni asoslash.

3. Muallif qayerda yetarlicha ma’lumot bermagani va noto‘g‘ri ma’lumot berganini ko‘rsatish.

4. Muallif fikridagi mantiqsiz joylarni topish, uning tugallanmagan xulosalarini aniqlash.

5. Muallif argumentlarini topish yoki kitobdagi fikrlardan muallif nima demoqchiligini aniqlash.[2]

Yuqoridagi qoidalar samarali o‘qish uchun juda katta yordam beradi. Hozirda hamma joyda ko‘p kitob o‘qishga targ‘ib qilinyapti lekin o‘qilgan yoki o‘qiladigan kitoblarni qanchalik darajada samarali yoki foydaliligiga kam e’tibor berilyapti. Geraklit shunday ta’kidlagan: “Ko‘p ma’lumotni bilish aqlga o‘rgatmaydi”. Xususan inson qancha ko‘p chalkash ma’lumot qabul qilsa fikrlar shuncha chalkash bo‘ladi. Fikrlarni bunday holatga kelmasligi uchun inson duch kelgan narsani o‘qiyvermasligi kerak. Olingan ma’lumotlarni samarali va foydali bo‘lishi uchun ma’lum bir prinsiplardan foydalaniladi. Jumladan, Artur Shopengauer ham shunday fikr bildirgan: “Ko‘p o‘qish nafaqat befoyda, (chunki o‘qish jarayonida kishi begona fikrlarni olib, chala o‘zlashtiradi, holbuki o‘zi shunga aqli bilan yetishi mumkin edi) balki aql uchun zarardir, chunki bu ish uni zaiflashtiradi, g‘oyalarni o‘zining boshidan emas tashqi manbalardan yig‘ishga o‘rgatib qo‘yadi”.

Bir-ikki kitob o‘qib uni juda yaxshi tushungan aql yil mobaynida 100 ta kitobni yutib yuborgandan kuchliroq, boyroq bo‘ladi. “Avvallari kitob oz, ilm ko‘p edi. Hozir kitoblar ko‘p, ilm oz” degan edi Ibn Javziy. Darhaqiqat, hozir ko‘pchilik kitoblarni shunchaki o‘qiyotganday. Bugungi kunda har qanday inson juda ko‘p kitob o‘qishi kerak degan tushuncha shakllanib qolgan ayrim yoshlar orasida. Lekin “Ko‘p o‘qish” juda nisbiy tushunchaliginiyam aytib o‘tish kerak. Kingadir, qaysidir holat uchun, maqsad va imkoniyatlarga qarab bo‘ladi. Bir yilda 500 ta birinchi sinf bolalari uchun chiqarilgan kitobni o‘qigan bilan shu davrda Kvant fizikasiga bag‘shlangan 70 betlik monografiyasini o‘qib tushungan odam bilan barobar emas. Albatta bu bo‘rtirilgan misol.[3]

Hozirgi kunda jamiyatimizda yengil- yelpi kitoblarga bilan talab juda yuqori. Yoshlar qiyin janrdagi ilmiy va badiiy, ilmiy ommabop asarlarni kamdan kam o‘qiyaptilar. Shuning uchun quyida qiyin kitobni qanday yengish haqida metodlar keltiriladi.

Ba'zi insonlarda shunday fikr o'rnashib qolgan bo'lishi mumkin: "Barcha oson o'qiladigan kitoblar hamisha foydalidir" Yo'q, aslida also unday emas. Sababi inson miyasi oldin bilgan, o'qigan narsasini yengil qabul qiladi, bunday narsalarni o'qish jarayoni ham silliq kechadi. Buning ham foydasi bor, albatta: avvallari olingan bilimni puxtalab olish, unutilayotgan narsani qaytarish kerakli mashg'ulotlardan. Lekin eski narsani qaytarish yangi bilimlarni olish degani emas. Yengil yoki tanish narsalarni o'qiyverish tafakkurning chegaralanishiga olib keladi.[4]

"Foydali kitob hamisha qiziqarli yozilgan bo'ladi" Bu fikr ham noto'g'ri, chunki siz uchun foydali bo'lgan hamisha ham qiziqarli bo'lavermaydi, ba'zida siz o'zingizga kerakli bo'lgan bilimni olish uchun judayam zerikarli bilan ma'ruza matnlarini, ilmiy kitoblarni o'qishingizga to'g'ri keladi.

"Qiyin kitoblarga aqlim yetmaydi, ularni ochib ham o'tirmayman" Bu fikr judayam ko'plab insonlarda bo'lishi mumkin. Lekin bu fikr ham mutlaqo xato. Sizga zerikarli va yoki qiyin tuyulgan matnlar, malakangizni oshirish yoki dunyoqarash kengligi uchun foydali bo'lib, unda yangicha yondashuvlar, avvallari uchramagan yangi ma'lumotlar bor. Notanishlikni miya yoqtirmaydi, darrov diqqatni burish, kislorodni bo'g'ib, esnoq tuttirishga kirishib ketadi, qorinni ochirib qo'yadi yoki hojatga chaqirib qoladi. Bunga sabab: miya organining dasturida "Zo'riqmay mazza qil! Quvvingni arsa!" buyrug'i bitilgan. Ongli kishi bu primitiv buyruq o'rniga "O'qib o'zgar, bo'lmasam halok bo'lasan! Bir oz qiynal, evaziga katta rohat topasan!", degan dasturni ham yoqa bilishi kerak[5]. Kishi o'zini qiyin yozilgan, qalin jildli kitoblarni, uzun maqolalarni oxirigacha o'qishga majburlay olishi kerak agar oldin eshitmagan bilmagan termin, atama, ma'lumotlarga duch kelinsa qo'shimcha manbalardan foydalanib, tushunishni osonlashtirish kerak. Kasb yoki dunyoqarashning rivojlanishi uchun foydali topilgan eng murakkab va eng semiz kitobni olib xijjalab o'qishga o'zni undash kerak. Shundagina inson kutilgan natijaga erisha oladi. Qiyin kitoblarda ko'pgina tushunarsiz qolgan ma'lumotlar baribir miyada iz qoldirardi. Bu safar tushunmasangiz, boshqa manbalarda xuddi shu ma'lumotlarni uchratib qolasiz va uni chuqurroq anglab yetasiz.

Quyida esa o'qilgan narsani qanchalik tez unutilishi va bizning xotiramiz qanday ishlashi haqida ma'lumot keltiriladi.

Nemis psixologi, eksperimentlar psixologiya vakili Herman Ebbinghausning (1850-1909) yozishicha biz o'rgangan narsalarimizni 24 soatdan keyin uchdan bir qismini unutar ekanmiz. Uning xotiraga bag'ishlangan tadqiqotlarida ko'ra: 1) o'rganishning birinchi 9 soatida unutish ko'p uchraydi, 2)ustalik darajada(juda ko'p takrorlangan) o'rganilgan narsa juda uzoq vaqt davomida yodda qoladi, 3)unutilgan narsalarni o'rganish birinchi marta o'rganilayotgan narsadan ancha tez o'zlashtiriladi, 4)ma'noli narsalar tasodifiy va ma'nosiz narsalardan ko'ra 10 marotaba tezroq esda qoladi, 5)kitobning boshidagi va oxiridagi qisimlari juda tez eslab qolinadi, 6)

o‘rganishdan 9 soat o‘tib o‘rganilgan narsaning 60 foizi yoddan chiqadi, 24 soatdan so‘ng esa uning uchdan ikki qismi unutiladi.[6] Shuning uchun Hermann o‘rganilgan narsani tez tez qaytarib turish kerakligini ta’kidlaydi. Bu borada o‘zbeklarning : “ Takrorlash bilimlarning onasidir” milliy xalq maqoliga amal qilish kerak.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, shubhasiz kitob o‘qish — har bir insonning dunyo qarashi, fikrlashi, muomala madaniyati xullas har bir jihatdan o‘shishga yordam beradi. Lekin, kitobga oshno bo‘lmagan insonlar bu qimmatli bilimlardan bebahra qolishadi. Ko‘p kitob o‘qish - insonni ilimli qilib qo‘ymaydi. Balki qanday kitob o‘qish va uni amalda qo‘llash muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://yuz.uz/uz/news/kitobni-qanday-oqish-kerak>
2. <https://t.me/subnazar>
3. <https://t.me/subnazar>
4. <https://t.me/+TVMG5wrzICmh91Io>
5. “How to read a book” Mortimer J. Adler, Charles Van Doren
6. Philosophical root magazine, page 48.